

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA TURLI QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Sabo Shomurzayevna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annontatsiya: O'qituvchi kasb mahoratining shakllanishida qobiliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagogik ko'nikma negizida o'quvchi bilan amalga oshirishi lozim bo'lgan ta'lim va tarbiyaviy munosabat turadi.

Kalit so'z: Kadrlar, dastur, metodik, mahorat, Yangilik

Ana shu munosabatning uzluksiz va barqaror tus olishi muayyan pedagogik texnologiyani keltirib chiqaradi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida yaqin yillarda ta'limning mutlaqo yangi metodikasi ishlab chiqiladi. Bu esa yangicha pedagogik mahorat talab etadi. Shunga ko'ra pedagogik texnologiyada o'qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Aniqroq qilib aytganda, yangi metodik mahorat-yangicha pedagogik texnologiya demakdir. Yangicha pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi va vazifasi yangi metodik mahoratni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirishga qaratilgan bo'ladi. Xulosa qilib aytganda bilim va qobiliyatining yuzaga chiqishi o'qituvchining ijodkorligi, yangi pedagogik texnologiyasini kasb-mahorati asosida amalgam tatbiq etishdir. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ishlashi, tinimsiz izlanishi ta'limning [yangi usullaridan foydalanishi](#), dars berish jarayonida ko'rsatmali qurollardan, texnika vositalaridan, tarqatma materiallardan, test savollaridan unumli foydalanishi kerak. Darslarni DTS lari talablari, pedagogik texnologiya usullari asosida tashkil qilib dars – sahna, dars – suhbat, dars – sayr ko'rinishida o'quvchilarga bilim berishga erishish kerak. Darslarni milliylik asosida tashkil qilish, noananaviy darslar, hamda andozasiz darslar tashkil qilish o'qituvchining qobiliyatiga va mahoratiga bog'liq deb o'ylayman O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng hamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini [faollashtirish](#), o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.

Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usularini echishni aniqlashga qaratilgandir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. [Ular tenglarning hamkorligi](#), o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir. O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida [taklif qilinadigan yangini](#), yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashqurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subektiv darajalarini farqlaydilar. Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi. Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Innovatsion faoliyat” **2005**
2. “Pedagogik ko‘nikma” **2019**
3. “O‘qituvchi faoliyati” **2021**
4. Karimov, K. (2023). OFFICIALS OF JUDICIAL INSTITUTIONS AND HISTORY OF THEIR FORMATION. *Абай атындағы ҚазҰПУ-нің ХАБАРШЫСЫ, «Юриспруденция» сериясы.*
5. Karimov, K. (2021). Qozilik mahkamalari hujjatlariga oid ayrim mulohazalar. *Sohibqiron yulduzlari.*